

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

USTRUSHONA HUDUDIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR: TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Baratov Shoislom Abdug'ani o'g'li

Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi Ideal Study xususiy maktabi, direktor.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Ustrushona o'lkasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari hamda ularning ilmiy natijalari tahlil qilingan. Hududda aniqlangan arxeologik yodgorliklar, ekspeditsiyalar faoliyati va arxeologik manbalarning Ustrushonaning qadimgi hamda ilk o'rta asrlar tarixini yoritishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ustrushona, arxeologik manbalar, arxeologik tadqiqotlar, arxeologik yodgorliklar, moddiy madaniyat, ekspeditsiya, qadimgi davr, ilk o'rta asrlar.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В РЕГИОНЕ УСТРУШАНА: ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Баратов Шоислом Абдугани угли

Частная школа Ideal Study, г. Гулистан, Сырдарьинская область, директор.

Аннотация.

В данной статье анализируются основные этапы археологических исследований Уструшаны и их научные результаты. Освещаются археологические памятники региона, деятельность научных экспедиций и значение археологических источников для изучения истории Уструшаны в древности и раннем Средневековье.

Ключевые слова: Уструшана, археологические источники, археологические исследования, археологические памятники, материальная культура, экспедиции, древность, раннее Средневековье.

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED IN THE USTRUSHONA REGION: A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS

Baratov Shoislom Abdug'ani o'g'li

Ideal Study Private School, Gulistan, Syrdarya Region, Director.

Abstract.

This article analyzes the main stages of archaeological research conducted in Ustrushana and its major scholarly findings. It examines the archaeological sites of the region, the activities of archaeological expeditions, and the significance of archaeological evidence for reconstructing the history of Ustrushana during Antiquity and the Early Middle Ages.

Keywords: Ustrushana, archaeological sources, archaeological research, archaeological sites, material culture, expeditions, Antiquity, Early Middle Ages.

Kirish. Ustrushona qadimgi va ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik o'lkalaridan biri bo'lib, uning tarixini o'rganishda arxeologik manbalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida turli davrlarga oid shahar xarobalari, qal'alar, manzilgohlar, **mozor-qo'rg'onlar** hamda moddiy madaniyat namunalari aniqlanishi Ustrushonaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritish imkonini berdi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab olib borilgan muntazam arxeologik izlanishlar hududning tarixiy topografiyasi, shaharsozligi va aholi xo'jalik faoliyatiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi. Mazkur maqolada Ustrushonada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari, ularning ilmiy natijalari hamda arxeologik manbalarning hudud tarixini o'rganishdagi o'rni tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Ustrushona **tarixiy-geografik** o'lkasi hududida o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab tadqiqotlar olib borilayotgan **bo'lsa-da**, muntazam tadqiqotlar ancha kech boshlandi. Shuningdek, tadqiqotlarning katta qismi ko'pgina yodgorliklarning yuqori qatlamlarini egallagan rivojlangan o'rta asrlar davrini o'rganish bilan chegaralangan. Umuman, Ustrushona **tarixiy-geografik** o'lkasi hududida olib borilgan arxeologik izlanishlarni shartli ravishda quyidagi uch davrga ajratish mumkin:

XIX asrning oxiri – XX asrning 40-yillarigacha bo'lgan davr. Bu davrda olib borilgan tadqiqotlar hudud haqidagi dastlabki ma'lumotlarni to'plash, shuningdek, qurilish va rekonstruksiya ishlari davomida yoki tasodifiy topilmalarni tahlil qilishdan iborat bo'lgan. Jumladan, yozma manbalar tahlili asosida V. V. Bartold tomonidan ilk bor "(Ustrushona) tarixiy-geografik o'lkasi" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi [1]. Shuningdek, Ustrushona o'lkasining arxeologik yodgorliklari haqida turli tadqiqotchilar, xususan, Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari ilmiy ishlanmalarida qisqacha to'xtalib o'tilgan [2]. Shu bilan birga, olib borilgan barcha tadqiqotlar, bayon qilingan fikrlar asosan yozma manbalarga va hududdan tasodifan topilgan yoki yodgorliklar ustidan yig'ib olingan moddiy ashyo buyumlarini yig'ish natijasiga

asoslanganligi uchun Ustrushona tarixi haqida ma'lumotlar kam.

1943-yildan 1970-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davr. Bu davrda Ustrushona hududida O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan ancha kech izlanishlar boshlangan. Masalan, 1943–1944-yillarda V. F. Gaydukevich boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya Farhod GES qurilishi munosabati bilan uning suv ostida qolib ketishi ehtimoli bo'lgan hududlarda arxeologik izlanishlar olib bordi [3]. Tadqiqotlar natijasida ko'chmanchi chorvadorlarga tegishli bo'lgan bir qancha **mozor-qo'rg'onlar** o'rni aniqlanib, ular ochib o'rganilgan. A. Yu. Yakubovskiy boshchiligidagi Sug'd-Tojik ekspeditsiyasining O. I. Smirnova rahbarligidagi otryadi 1949–1950-yillarda Ustrushona hududida arxeologik yodgorliklarni aniqlash ishlarini olib bordi [4]. Otryad tomonidan ko'plab moddiy madaniyat yodgorliklari aniqlanib, ularning ba'zilarida ilk bor qazish ishlari amalga oshirildi (masalan, Qalai Qahqaha I, II, Mug'tepa). 1950-yillarda O'zbek-Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasining Moxondaryo otryadi Jizzax atrofida ilmiy izlanishlar olib borib, qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid bir qator yodgorliklarni aniqladi va hisobga oldi [5].

1955-yildan 1960-yilgacha faoliyat ko'rsatgan Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasining Xo'jand-Ustrushona otryadi alohida yodgorliklarda (Qalai Qahqaha I–II, Mug'tepa, Tirmizaktepa, O'rtaqo'rg'on) qazuv tadqiqot ishlarini olib bordi. Otryad tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida hududning arxeologik xaritasi tuzilib, mintaqa yodgorliklari zaxirasi boyitildi [6]. Qirg'izistonning Laylak-Batkent (1959–1960-yillar) arxeologik otryadlari Isfanosoy va Xo'jabaqirgansoy havzalarida bir qancha yodgorliklarni aniqlab, ularning ba'zilarida qazishma ishlarini o'tkazdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida Ustrushona hududida turli davrlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari, arxeologik ekspeditsiyalar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda arxeologik xaritalar qiyosiy va tarixiy-tahliliy usullar asosida o'rganildi. Shuningdek, hududdagi arxeologik yodgorliklarning davrlashtirilishi, joylashuvi va ilmiy o'rganilish bosqichlari tarixiy-qiyosiy hamda tarixiy-geografik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida arxeologik manbalarni kompleks tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari, ularning ilmiy natijalari hamda istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlari baholandi.

Muhokama va natijalar (Discussion and results). XX asrning 60-yillaridan boshlab sharqiy va janubi-sharqiy Ustrushona hududidagi arxeologik tadqiqotlar keng ko'lamda va reja asosida olib borila boshlandi. Bu **hol** qadimiy Ustrushonaning Tojikiston qismi, xususan, Shahristonda olib borilgan tadqiqotlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu davrda, 1961-yilda o'z faoliyatini boshlagan N. N. Negmatov rahbarligidagi Shimoliy Tojikiston otryadining alohida guruhlar tomonidan bir qator yangi arxeologik yodgorliklar aniqlanib, xaritaga tushirildi, ularning ba'zilarida qazishma ishlari ham olib borildi (Qalai Qahqaha I–II–III, Tirmizaktepa, O'rtaqo'rg'on, Chilxujra, Xon-Yaylov) [7]. Qator yodgorliklarda arxeologik izlanishlar keng ko'lamda yo'lga qo'yildi (Mug'tepa, Do'ngchatepa, Childuxtaron, Toshtemirtepa, Shirin) [8]. Ushbu tadqiqotlar natijasida N. N. Negmatov tomonidan birinchi bor Ustrushonaning qadimgi davrdan X asrgacha bo'lgan tarixi keng yoritilgan asarlar yaratildi.

1960–70-yillarda Ustrushonaning O'zbekiston qismida alohida olingan yodgorliklarda maxsus qazuv tadqiqot ishlari olib borilmagan bo'lsa-da, hududning arxeologik xaritasini yaratish yo'lida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, jumladan, Sangzor, Zominsuv havzalarining tog'li qismida olib borilgan qidiruv ishlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin [9]. 1960-yillarda V. A. Nilsen **tomonidan** Nurota shahristonida ba'zi bir qazuv tadqiqot ishlari olib borildi [10].

Umuman olganda, bu davr (1943–1975-yillar) Ustrushona tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar tomonidan Shimoliy Ustrushonaning cho'l qismini (Sirdaryo viloyati) hisobga olmaganda, hududning ayrim qismlari arxeologik xaritasi ishlab chiqildi. Janubiy, janubi-sharqiy Ustrushonadagi bir qator yodgorliklarda oldindan belgilangan umumiy reja asosida qazuv tadqiqot ishlari olib borildi. Biroq Ustrushonaning O'zbekiston qismida tadqiqotlarning asosiy qismi shahar va manzilgoh tipidagi arxeologik yodgorliklarga qaratilib, Ustrushona tarixida muhim o'rin tutuvchi chorvadorlarga tegishli **mozor-qo'rg'onlar** kam o'rganildi.

1970-yil o'rtalaridan to bugungi kungacha bo'lgan davr. Bu davrda O'zbekiston hududiy doirasidagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan yangidan-yangi yodgorliklarning ochilishi va o'rganilishiga katta e'tibor berildi. Shuningdek, Ustrushona hududlarini alohida **tarixiy-geografik** hudud sifatida uning arxeologik yodgorliklarini qayd qilish, hududning umumiy arxeologik xaritasini ishlab chiqish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar Ustrushona hududining O'zbekiston qismida (shimoliy va shimoli-g'arbiy Ustrushona) O'zR FA Arxeologiya institutining Jizzax, Baxmal guruhlar, keyinchalik Choch-Ustrushona ekspeditsiyasining Jizzax, Sirdaryo, Zomin guruhlar tomonidan olib borildi [11].

Ustrushonaning Tojikiston qismida bu yo'nalishdagi tadqiqotlar Shimoliy Tojikiston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi guruhlar tomonidan amalga oshirildi [12].

Ayni vaqtda 1970–1990-yillarda tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarga oid alohida yodgorliklarning ba'zilarida olib borilgan dala qazuv tadqiqot ishlari yakunlangan (Toshtemirtepa, Qing'irtepa I, Qing'irtepa II, Almantepa, Do'ngchatepa, Qalai Sor, Miq) [13]. Shu bilan birga bir qator yodgorliklarda oldin boshlangan qazuv tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli davom ettirildi (Nurtepa, Qaliyatepa, Rasulboyqultepa, Pardaqltepa, Komilbobotepa, Xontepa, Kultepa, Nurota) [14]. Ushbu tadqiqotlar natijasida Shimoli-g'arbiy Ustrushona hududi rustoqlari lokalizatsiyasi tuzib chiqildi.

Biroq ushbu tadqiqotlar hududning qadimiy va ilk o'rta asrlar davri moddiy madaniyati, jumladan, ilk manzilgohlarning paydo bo'lishi, shaharsozlik an'analari, **hunarmandchilikning** paydo bo'lishi, qadimiy davr tarixiy-geografik tasviri, tarixiy topografiyasi, siyosiy-iqtisodiy hayoti muammolarini o'rganish bilan cheklanadi.

Hududning qadim va ilk o'rta asrlar davri tarixini o'rganish borasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning yana bir yo'nalishi **tarixiy-geografik** o'lkani arxeologik xaritasini yaratish borasidagi tadqiqotlardir. Tarixiy Ustrushona o'lkasi mazkur yo'nalishdagi izlanishlarda bir necha hududlarga ajratib o'rganilgan. Bular Shahriston vohasi, xususan,

Shahristonsoy, Kattasoy, Bosmandasoy, Oqsuv, Isfanasoy va Xo'jabaqirgansoy havzalarining yuqori oqimini o'z ichiga oluvchi sharqiy va janubiy-sharqiy Ustrushona. Jizzax vohasi, Zominsoy, Sangzar suv havzasiga kiruvchi shimoli-g'arbiy Ustrushona, Xo'jamushkentsoy havzasi va bunga tutash hududlarning tekislik cho'l qismi (hozirgi Sirdaryo viloyati va Jizzax viloyatining ayrim tumanlari) kiruvchi shimoliy Ustrushonadir. Ustrushona arxeologik xaritasini yaratish yo'nalishidagi tadqiqotlar natijasida shimoliy Ustrushonada 137 ta [15], shimoli-g'arbiy Ustrushonada 450 dan ortiq [16], sharqiy Ustrushonada 250 dan ortiq [17] arxeologik yodgorlik aniqlangan.

Ustrushonadagi qadimgi ko'chmanchi chorvadorlarning turmush tarzi mintaqaning boshqa hududlarida kuzatilganidek, asosan **mozor-qo'rg'onlarni** qazish orqali qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar yordamida o'rganilgan [18]. Xususan, **mozor-qo'rg'onlarning** dasht va tog'oldi hududlarida joylashuvi [19], qabrlarning xususiyatlari, yo'nalishi, qabr ichiga qo'yilgan "tortiq buyumlar"ning klassifikatsiyasi, ko'mish udumlari [20] ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning e'tiborini tortgan [21].

Chorvadorlarning qabr qo'rg'onlarini o'rganish ishlari o'tgan 40-yillarida V. F. Gaydukevich tomonidan Shirinsoydagi antik davrga mansub qabrlar o'rganila boshlangan [22]. Shimoliy va shimoli-g'arbiy Ustrushona **hududida** joylashgan ko'chmanchi chorvador qabilalar mozor-qo'rg'onlarini aniqlash va o'rganishga 1970–80-yillardan e'tibor qaratildi. Jumladan, Forish va Zomin tumanidagi mozor-qo'rg'onlar S. Rahimov tomonidan qayd qilinib, Qoratosh qabrlari va Qulpisar dolmeni ochib o'rganilgan [23]. G'allaorol tumani Chuvilloq qabrlari va Uchtepa **mozor-qo'rg'onlari** O'. Alimov tomonidan ochib o'rganilgan. Qizili massivida Xo'jamushkentsoy bo'ylari, Sho'rbuloqsoy va Ravotsoyda M. H. Pardayev, Zomin tumanidagi Sag'onoq, Sirdaryo viloyatidagi Ulkan-Soyliq, Saritepa va Kindiktepa mozor-qo'rg'onlari A. A. Gritsina tomonidan qayd qilinib, ochib o'rganilgan.

2003–2016-yillarda shimoli-g'arbiy Ustrushonadagi G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi va Qoratepa **mozor-qo'rg'onlarida** F. E. Toshboyev tomonidan tadqiqotlar olib borilib, o'lka ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatini o'rganish borasidagi izlanishlar umumlashtirilgan [24]. Arxeolog F. A. Maqsudovning tadqiqotlari ham Ustrushonadagi qoraxoniylar davriga oid ko'chmanchi chorvadorlarning shahar manzilgohini o'rganishga bag'ishlangan [25]. Shunday qilib, Ustrushona ko'chmanchi chorvadorlarining mil. old. I – mil. I mingyilliklarida moddiy madaniyatini qayta tiklash imkoni tug'ildi [26].

Umuman ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatini o'rganish borasidagi izlanishlarning katta qismi mualliflar tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. F. E. Toshboyevning tadqiqotlarida mozor-qo'rg'onlarning tuzilishi, siyosiy jarayonlar, **xalqlarning** migratsiya masalalariga katta urg'u berilgan. Lekin turli antropogen landshaftga ega Ustrushonaning ma'naviy hayoti, shaharlashgan o'troq aholisi va ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, ma'naviyatdagi o'xshashliklar va o'ziga xosliklar, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy o'lkalari bilan assimilyatsiya jarayonlari ko'rsatib berilmagan.

Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilgan holda quyidagi xulosa chiqarish mumkin. Bugungi kungacha bo'lgan davrda umumiy hisobda Ustrushona hududida turli davrlarga oid 800 dan ortiq arxeologik yodgorlik aniqlanib, xaritalashtirilgan. Ularning asosiy qismi janubiy, janubi-sharqiy, shimoliy, shimoli-g'arbiy hududlarda aniqlangan. Bu yodgorliklarning 2,4 % (30 ta yodgorlik) qadimiy davrga, 60–65 % ilk o'rta asrlarga, qolganlari rivojlangan o'rta asrlarga oiddir. Tadqiqotlar natijasida Ustrushonaning ayrim qismlari arxeologik xaritasi yaratilgan. Biroq bu yo'nalishdagi **tahlillar** jarayonida ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan:

a) Ustrushonaning janubiy qismidagi tog'li hududlar, Oqsuv va Bosmandasoy havzalari yuqori oqimlarida 1974-yilda A. I. Bilolov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni hisobga olmaganda to'liq o'rganilmagan.

b) Shimoliy va shimoli-g'arbiy Ustrushona oralig'idagi Ravotsoy va Oqbuloqsoy havzalari ham arxeologik jihatdan to'liq tadqiq etilmagan.

O'tgan yillar davomida Ustrushona hududida 40 ga yaqin yodgorliklarda doimiy statsionar tadqiqotlar olib borildi. Bu yodgorliklarning 11 tasi qadimiy davrga, 26 tasi ilk o'rta asrlarga oid. Ushbu tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar keng tahlil etilgan **bo'lsa-da**, qadimda yashagan aholining ma'naviy madaniyati masalalari yoritilgan, ma'lumotlarni umumlashtirgan yagona ilmiy tadqiqot yaratilmagan.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, bu tadqiqotlar Ustrushona moddiy madaniyati qadim va ilk o'rta asrlarda Ustrushona hududida yashagan turli xil xo'jalik tartibiga ega bo'lgan o'troq va ko'chmanchi aholining ma'naviy hayoti, jumladan, diniy tasavvurlari, urf-odat va an'alarini yoritib berishda asosiy manba bo'lib **xizmat** qiladi. Bu o'ziga xos murakkab hayot tarziga ega bo'lgan shimoli-g'arbiy Ustrushona hududining moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotning zarurligini ko'rsatadi. Yuqoridagilar asosida Ustrushonaning qadimgi va ilk o'rta asrlar davri moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qisman to'xtalib ketilgani, biroq alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagani to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. I. – Москва: Наука, 1963. – С. 585.
2. Караваев. Карта. – 1914; Кастане. – 1915. – С. 44; Ликошин. – 1896. – С. 9; Скварский. – 1896. – С. 44.
3. Гайдукевич В. Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции Узбекистана в 1943–1944 гг. (предварительное сообщение) // КСИИМК. – Вып. XV. – Москва–Ленинград, 1947. – С. 92–109; Гайдукевич В. Ф. Керамическая обжигательная печь Мунчактепе // КСИИМК. – Вып. XXVIII. – Москва–Ленинград, 1949. – С. 77–82; Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширина в Узбекистане // Советская археология. – 1952. – № 14. – С. 331–359.
4. Смирнова О. И. Археологические разведки в Уструшане в 1950 г. // МИА. – Т. 37. – Москва–Ленинград, 1953. – С. 189–230.
5. Альбаум Л. И. Буддийский храм в долине Сангзар // Доклады Академии наук УзССР. – Ташкент, 1955. – С. 57–59; Muhammadjonov A. R. Sirli toshlar izidan // Fan va turmush. – 1957. – № 1. – B. 16–18.

6. Негматов Н. Н., Салтовская Е. Д. О работах Ходжентско-Уструшанского отряда в 1960 г. // Труды Института истории АН Таджикской ССР. – Т. XXXIV. – Душанбе: Дониш, 1962. – С. 69–89
7. Негматов Н. Н. Исследования Северо-Таджикистанского археологического отряда в 1973 г. // АРТ. – Вып. XIII. – Душанбе: Дониш, 1977. – С. 112–136
8. Негматов Н. Н., Мирбабаев А. К., Абдурасулов М. А. Начало раскопок городища Ширин (предварительное сообщение) // АРТ. – Вып. XVI. – Душанбе: Дониш, 1982. – С. 292–307.
9. Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. – Вып. 8. – Ташкент: Фан, 1969. – С. 137–142
10. Нильсен В. А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). – Ташкент: Фан, 1966. – 332 с.
11. Ртвеладзе Э. В., Исхаков М. Х., Маликов О. С. Исследования в Сурхандарьинской и Джизакской областях // Археологические открытия 1977 года. – Москва: Наука, 1978. – С. 536–537
12. Билалов А. И. О работе горного археолого-топографического отряда СТАКЭ в 1974 г. // АРТ. – Вып. XIV. – Душанбе: Дониш, 1979. – С. 356–364
13. Пулатов У. П. Замок Тоштемиртепа // АРТ. – Вып. XV. – Душанбе: Дониш, 1980. – С. 303–316; Пулатов У. П. Раскопки Калаи Соре в 1983 г. // АРТ. – Вып. XXIII. – Душанбе: Дониш, 1991. – С. 47–57
14. Негматов Н. Н., Беляева Т. В. Общий отчет об исследованиях Нуртепе в 1980–1985 гг. и продолжении работ по дальнейшему изучению и сохранению памятника // АРТ. – Вып. XXV. – Душанбе: Дониш, 1994. – С. 23–27
15. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 42–63.
16. Pardayev M. X. Shimoli-g'arbiy Ustrushona ilk o'rta asrlar davrida: tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 1995. – B. 21.
17. Смирнова О. И. Археологические разведки в Уструшане в 1950 г. // МИА. – Т. 37. – Москва–Ленинград, 1953. – С. 189–230
18. Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширинская в Узбекистане // Советская археология. – 1952. – № 26. – С. 335–352
19. Грицина А. А. Кочевники в Уструшане (на примере изучения курганов в Сырдарьинской и Джизакской областях) // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии / Под ред. К. И. Ташбаева. – Самарканд–Бишкек, 2005. – С. 186–195.
20. Грицина А. А. Изучение курганов в Сырдарьинской области // ИМКУ. – 1997. – Вып. 28. – С. 76.
21. Алимов У. А., Сверчков Л. М. Работы в Джизакской области // Археологические открытия 1982 года. – Москва, 1984
22. Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширинская в Узбекистане // Советская археология. – 1952. – № 26. – С. 335–352.
23. Алимов У. А., Сверчков Л. М. Работы в Джизакской области // Археологические открытия 1982 года. – Москва, 1984.
24. Toshboyev F. E. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014. – 237 b
25. Maqsdov F. A. O'rta asrlarda tog'li Ustrushona ko'chmanchi madaniyati: tarix fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
26. Тошбоев Ф. Э., Пардаев М. Х., Грицина А. А. Изучение Гульбинского могильника // Культура кочевников Центральной Азии. – Самарканд, 2008. – С. 184–189;